

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 265 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA


RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulotov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI

Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti,

"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi, PhD

Email: jahongir_6000@bk.ru

ORCID: 0009-0004-5932-6360

Annotatsiya. Mazkur maqolada Namanganda don mahsulotlari narxlarining shakllanish jarayonida bozor tamoyillarining roli tahlil qilinadi. Talab va taklifning dinamik o'zgarishi narxlar tebranishiga bevosita ta'sir etishi, qisqa muddatli prognozlarning murakkabligi hamda oziq-ovqat xavfsizligi sharoitida narx barqarorligini ta'minlash dolzarbligi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot don bozorida barqaror narx mexanizmini shakllantirish va hududiy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan.

Kaliit so'zlar: don, un mahsuloti, narx, g'alla, bug'doy, klaster, urug'.

Abstract. This article examines the role of market mechanisms in shaping grain prices in the Namangan region. It highlights how fluctuations in supply and demand directly influence price volatility, making short-term forecasting difficult. The study emphasizes the importance of maintaining price stability and ensuring food security under current market conditions. The research focuses on identifying key determinants of stable pricing mechanisms and strengthening regional food security.

Keywords: grain, flour products, price, grain, wheat, cluster, seed.

Аннотация. В статье анализируется роль рыночных механизмов в формировании цен на зерновые продукты в Наманган. Отмечается, что динамика спроса и предложения напрямую влияет на колебания цен, что затрудняет краткосрочное прогнозирование. Особое внимание уделено вопросам обеспечения продовольственной безопасности и поддержания ценовой стабильности на региональных рынках. Исследование направлено на выявление факторов устойчивого ценообразования и укрепление продовольственной безопасности области.

Ключевые слова: зерно, мучные изделия, цена, зерно, пшеница, гроздь, семя.

KIRISH

Mamlakatimizda 2022-yil 1-iyundan boshlab don va un mahsulotlarini birja savdolari orqali erkin narxlarda sotish yo'lga qo'yildi. Prezidentimizning 2022-yil 28-maydagi "G'allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-262-son¹ qarori bilan g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilib, g'allachilik klasterlari va fermerlarga bug'doyni bozor narxida to'liq erkin sotish huquqi berildi [1].

Bu fermerlarning klasterlar uchun o'z mahsulotlarini bozor narxida sotishlariga imkon beradi. Yangi tizim un va non mahsulotlari narxiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda fermer davlat xarajatlarining bir qismini o'z bo'yniga olib, tadbirkorga bug'doyni arzon narxda bermaydi. Ishlab chiqaruvchilar bug'doy va un mahsulotlarini birja orqali erkin narxlarda sotib olib, tayyor mahsulot narxini ham xarajatlaridan kelib chiqqan holda o'zlari

1 <https://lex.uz/docs/-6038081>



belgilaydi. Bu jarayonda ayrim tadbirkorlar bundan foydalanib, narxlarni keskin oshirib yuborishi ehtimoli ham yo'q emas.

Shu bois, davlatimiz rahbari topshirig'iga asosan yangi tizim shaffofligi, to'laqonli va adolatli ishlab ketishini nazorat qiluvchi Bosh prokuror boshchiligidagi Respublika shtabi tuzilgan. Hozirda 21 ta vazirlik va idoralar rahbarlaridan iborat shtabning barcha hududlarda hududiy bo'limlari to'liq tarkibda ish olib boryapti. Ular har kuni g'allani sotib olish va sotishda bug'doy yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta'minlash, ichki bozorda un va don mahsulotlari narxining o'sishi va taqchilligining oldini olish, muammolarni tezkor bartaraf etish bo'yicha ishlar olib bormoqda [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketingda narxlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy jihatlarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar D. Aaker, I. Ansoff, K. Andersen, G. Assel, A. Bazzel, Ya. Danbar, Ye. Dixtl, G. Karter, G. Kollinz, F. Kotler, J. J. Lamben, C. Makkonell, M. Porter, X. Xershgen, S. Xant, J. Evans kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Ushbu sohada MDH olimlaridan marketing va buxgalteriya hisobi bo'yicha T. V. Yevstigneeva, B. V. Ilatovskiy, V. D. Andree, V. V. Patrov, M. V. Ryjkova, A. K. Solodov singari olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan M. Ikramov, Sh. Ergashxodjayeva, A. Soliyev, M. Qosimova, M. Yusupov, A. Tillyaxodjayev, N. Akbarov, O. Ahmedov, M. Yodgorov, M. Abduraxmonova va boshqalar tomonidan ayrim jihatlarini keng o'rganilgan.

Boshqaruv hisobini yuritish muammolari bo'yicha R. Dusmuratov, A. Pardayev, B. Xasanov, A. Xoshimov, M. Pardayev, B. Isroilov, R. Xolbekov, A. Karimov va boshqalar tomonidan ayrim jihatlarini chuqur o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tanlangan tadqiqot mavzusi yuzasidan g'allani qabul qilish va uni sotishda joriy etilgan bozor mexanizmlari, avvalo, aholimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda g'alla yetishtiruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida don va un mahsulotlarining bozordagi narx-navosini davlat belgilamaydi — uni bozor talabi belgilaydi. Bu jarayonda mamlakatimizning asosiy vazifasi taklifni ko'paytirish, buning uchun tadbirkorlarning bozor iqtisodiyotida o'z o'rnini topishi, birja savdolarida ishtirok etib mahsulotini erkin sotishi hamda xarajatlarini kamaytirishga ko'maklashishdan iborat. Chunki bozorda talabga nisbatan taklif ko'p bo'lsa, narx barqarorligi ta'minlanadi va sog'lom raqobat muhiti shakllanadi [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda aholini don va un mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida 2022-yilda 1 million 32 ming gektar maydonda g'alla ekilib, 7,5 million tonnadan ortiq bug'doy yetishtirilishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 1,5 million tonnaga ko'p.

Yangi tizimga ko'ra, g'allaning bir kilogrammi dastlabki narx sifatida 2022-yil 1-iyundan boshlab 3 ming so'mdan qabul qilina boshlandi. Kelgusida esa birja narxlaridan kelib chiqqan holda ushbu narxga qo'shimcha haq to'lab berilishi barcha dehqon, fermerlar hamda klasterlar tomonidan ko'tarinki ruhda qabul qilina boshlandi.

Bugungi kunda Namangan viloyatida 3 ta yirik korxona don va don mahsulotlarini qayta ishlamoqda. 2022-yil holatiga "Namangandonmahsulotlari" AJga tumanlar kesimida boshqaliq donlarni yetkazib berish uchun Mingbuloq tumanidan 22155 tonna don, shundan urug'likka 1440 tonna, tovar don 17304 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 4851 tonna reja qilingan. Namangan tumanidan esa 15855 tonna don, shundan urug'lik 3220 tonna, tovar don 9868 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 2767 tonna rejalashtirilgan. Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida yetishtirilgan jami donlar urug'lik uchun ajratilmaydi; ushbu donlar faqat tovar don va birja savdosiga sotish uchun yo'naltiriladi.

"Uchqo'rg'on donmahsulotlari" AJga Uychi, Uchqo'rg'on, Norin va Chortoq tumanlari don mahsulotlarini yetkazib beradi. Ushbu tumanlar orasida Uchqo'rg'on tumani eng ko'p reja bo'yicha — 22304 tonna don yetkazib beruvchi hisoblanadi. Ya'ni, tovar don 14814 tonna, urug'likka 3337 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 4153 tonna bug'doy yetkazib beradi. Chortoq tumani bog'dorchilikka ixtisoslashganligi sababli reja bo'yicha tovar don 3976 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 1115 tonna, jami 5091 tonna bug'doy yetkazib beradi.

"Popdonmahsulotlari" AJga don mahsulotlaridan Pop va Chust tumanlari yetkazib beruvchi hisoblanadi. Korxonaga eng katta miqdorda boshqaliq donlarni yetkazib beruvchi Pop tumani bo'lib, reja bo'yicha tovar don 19063 tonna, urug'lik don 1270 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 5344 tonna, jami 24407 tonna yetkazib beradi.

Namangan viloyati tumanlaridagi fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarida 2021-yilda jami boshqoli don ekinlari ishlab chiqarish 462912 tonnani, 2020-yilda 441607 tonnani, 2019-yilda 481311 tonnani, 2018-yilda 471118 tonnani tashkil qilgan. Boshqoli don ekin maydonlari hajmi 2018–2019-yillarda 76500 gektar yer maydonini tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 74000 gektarga, 2021-yilga kelib 67750 gektarga qisqardi.

Bundan ko'rinadiki, viloyatda ekin maydonlari Kosonsoy, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida qisqarib, u yerlarda bog'dorchilikka o'tkazilayotgani aniqlanadi. Viloyatda boshqoli don yetishtirish uchun eng katta hudud Chust va Pop tumanlari hisoblanadi; ularning ekin maydonlari 10 ming gektardan ortiqni tashkil qiladi (1-jadval) [4].

1-jadval. Namangan viloyati va tumanlarida 2022-yil hosilidan boshqoli don tayyorlash rejasi²

№	Tumanlar	Tovar don	Urug'lik don	Vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun)	jami
"Namangandonmahsulotlari" AJ					
1	Mingbuloq	17304	1440	4851	22155
2	Namangan	9868	3220	2767	15855
3	Kosonsoy	11196	0	3139	14334
4	To'raqo'rg'on	10284	1575	2883	14742
5	Yangiqo'rg'on	4273	0	1198	5471
	Korxona jami	52924	6235	14837	72557
"Uchqo'rg'ondonmahsulotlari" AJ					
1	Uychi	12766	3050	3579	19394
2	Uchqo'rg'on	14814	3337	4153	22304
3	Norin	8701	2202	2439	13343
4	Chortoq	3976	0	1115	5091
	Korxona jami	40257	8589	11286	60132
"Popdonmahsulotlari" AJ					
1	Pop	19063	1270	5344	24407
2	Chust	17815	846	4994	23655
	Korxona jami	36877	2116	10338	48061
	Viloyat jami	130059	16940	36461	180750

Viloyatda urug'lik don 2018-yilda faqat Mingbuloq tumanida yetishtirilmagan bo'lsa, 2022-yilga kelib Yangiqo'rg'on, Chortoq va Kosonsoy tumanlarida ham yetishtirish rejalashtirilmagan; bu hududlarda don faqat iste'molga va savdoga mo'ljallangan.

Mingbuloq tumanida 9085 gektar yerdan 64600 tonna hosil yetishtirish rejalashtirilgan bo'lib, 63824 tonna hosil olingan. Davlatga 24326 tonna tovar don va 1734 tonna urug'lik don sotilgan.

Bugungi kunda Namangan viloyatida un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi bozor subyektlari "Uchqo'rg'ondonmahsulotlari" AJ, "Popdonmahsulotlari" AJ, "Namangandonmahsulotlari" AJ, yakka tartibdagi tadbirkorlar, uy xo'jaliklari va kichik korxonalar hisoblanadi. Un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi viloyat bozor subyektlari ichida "Uchqo'rg'ondonmahsulotlari" AJning bozor ulushi 2020-yilda 49,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 13,4 foizga kamaygan.

"Namangandonmahsulotlari" AJ 2020-yilda 44554 tonna un ishlab chiqargan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 117,6 foizga oshib, bozor ulushi 34,4 foizdan 40,4 foizga ko'tarilgan. "Popdonmahsulotlari" AJ korxonasi 2021-yilda 20100 tonna un ishlab chiqarib, bozor ulushi 15,5 foizni tashkil etgan va 2020-yilga nisbatan o'zgarmagan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan 2021-yilda 200 tonna un mahsuloti ishlab chiqarilib, 2020-yilga nisbatan 200 foizga o'sish kuzatilgan. Kichik korxonalar tomonidan 2021-yilda 1150 tonna un mahsuloti ishlab chiqarilib, 2020-yilga nisbatan 214,5 foizga o'sish qayd etilgan.

Bundan ko'rinadiki, viloyatda un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi bozor subyektlari orasida 2021-yilda "Uchqo'rg'ondonmahsulotlari" AJ eng katta ulushga ega bo'lib, jami 42,9 foizni, "Namangandonmahsulotlari" AJ 40,4 foizni, "Popdonmahsulotlari" AJ esa 15,5 foizni tashkil etgan (2-jadval).

2 Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

2-jadval. Namangan viloyatida un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi bozor subyektlarining ulushi tahlili³

№	Bozor subyektlari	2020-yil		2021-yil		2021-yilni 2020-yilga nisbati %
		tonna	jamiga nisbatan ulushi (%)	tonna	jamiga nisbatan ulushi (%)	
1	“Uchqo’rg’ondonmahsulotlari” AJ	64183	49,5	55645	42,9	86,6
2	“Popdonmahsulotlari” AJ	20090	15,5	20100	15,5	100,01
3	“Namangandonmahsulotlari” AJ	44554	34,4	52400	40,4	117,6
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlik	100	0,1	200	0,2	200
5	Uy xo’jaligi	100	0,1	100	0,1	100
6	Kichik korxonalar	536	0,4	1150	0,9	214,5
	Jami:	129563	100	129595	100	100,02

Bugungi kunda viloyatda faoliyat yuritayotgan korxonalarda un mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda iste'molchilarga sifatli va arzon mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatda sug'oriladigan va lalmi yerlarda g'alla yetishtirish, zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish, agrotexnik tadbirlarga amal qilish orqali don hosildorligini oshirish, shuningdek, “urug'lik–don–un–non va non mahsulotlari”ning to'liq bog'liqligi bo'yicha ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish, non va non mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan yuqori sifatli g'alla navlarini seleksiya qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda “O'zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari qarorlari asosida don korxonalarining aktivlari va ulushlarini investorlarga sotish ishlari tashkil qilinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Viloyatda un va non mahsulotlari narxlarining talab va taklifga mutanosibligini ta'minlashda korxonalarni aholi ko'p yashaydigan hududlarda joylashtirish, aholining kunlik ehtiyojini to'liq qondirishga qaratilgan ish vaqti asosida korxonaning o'zida yoki unga yaqin joylarda non va non mahsulotlari chakana savdosini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, dehqon bozorlari va aholi gavjum bo'lgan hududlarda keng assortimentdagi non va non mahsulotlarini sotish uchun non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga ixtisoslashgan (maxsus) savdo firma do'konlarini tashkil etish bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqildi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan ichki iste'mol bozoridagi bug'doyga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqib, davlat resurslari hisobidan birja savdolariga qo'yiladigan un hajmining muvozanatini ta'minlash orqali kunlik nazorat amalga oshirilmoqda.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi “Respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ bilan hamkorlikda don va un mahsulotlarini, shu jumladan fermer xo'jaliklari ixtiyorida qolgan hamda import qilingan don va un mahsulotlarini sotish bo'yicha elektron birja savdolari tizimida alohida savdo platformasini joriy qilmoqda. Bu orqali bozorlarda un va un mahsulotlari narxlarini talab va taklif asosida belgilashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13-апрелдаги “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/2931253>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 07 февральдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/3107036>
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 30 майдаги “2022 йил ҳосилидан буғдойни харид қилиш ва сотишда бозор тамойилларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 284-сонли қарори. <https://lex.uz/ru/docs/6038697>
4. www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.
5. Эргашходжаева Ш. Ж. Маркетинг бошқариш. Дарслик. — Т.: ТДИУ, 2018. — 324 б.
6. Солиев А. Маркетинг. Бозоршунослик. — Т.: АРТ-ФЛЕХ, 2008. — 384 б.
7. Эргашходжаева Ш. Дж., Косимова М. С., Юсупов М. А. “Маркетинг асослари”. Тошкент: Иқтисодиёт, 2019.
8. Тилляходжаев А. А., Юсупов М. А., Акбаров Н. Г. “Маркетинг”. Ўқув қўлланма. Тошкент: Иқтисодиёт, 2019.
9. Эргашходжаева Ш. Дж., Юсупов М., Хакимов З., Абдурахмонова М. “Товарлар ва хизматлар маркетинги”. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2019.

3 Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100